



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
**FANLAR
AKADEMIYASI**



MODDIY-MA'NAVIY MEROS VA UMUMBASHSARIY QADRIYATLAR

**Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to'plami
(2025-yil 16-may)**

17-KITOB

Toshkent-2025

Mas'ul muharrirlar:

Jannat Ismailova, tarix fanlari doktori, professor

Alisher Ismailov, tarix fanlari doktori(DSc), professor.

Larisa Levteyeva, tarix fanlari nomzodi, kat.i.x.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Toxir Norqobilov, t.f.b.f.d (PhD), kat.i.x.

Sarvar Boymirzayev, t.f.b.f.d (PhD).

Taqrizchilar:

T.f.d., prof. B.V.Xasanov, t.f.n., kat.i.x. X.Fayziyev

Mas'ul muharrirlar: J.X.Ismailova, A.F.Ismailov, L.G.Levteyeva; O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi. «Moddiy-ma'naviy meros va umumbashariy qadriyatlar» mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. –Toshkent, 2025-yil 16-may. - 428 b.

Konferensiya O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son buyrug'iga asosan tashkil etilgan.

Mazkur to'plamdan O'zbekiston tarixi davlat muzeyida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Moddiy-ma'naviy meros va umumbashariy qadriyatlar» nomli ilmiy-amaliy konferensiyaning 17-soni uchun to'plangan maqolalar jamlangan bo'lib, unda muzeysunoslik, tarix, arxeologiya, etnologiya hamda muzeylarda innovatsion texnologiyalarni jalb etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'rin olgan.

To'plam tarkibidan o'rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o'zida aks ettiradi.

To'plam O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi Ilmiy kengashining 2025-yil 27-maydagi majlisi qarori asosida nashrga (electron) tavsiya etilgan.

© O'z R F A O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, 2025.

BUXORO HOVUZLARI: MODDIY MEROS VA SHAHAR MUHITINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Hayotova NAFISA,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
BDTU, Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat
kafedrası dotsenti.

Annotasiya: Ushbu maqolada Buxoro shahridagi hovuzlarning tarixiy-me'moriy ahamiyati tahlil qilinib, asrlar davomida hovuzlarning aholi hayotidagi o'rni yoritilgan. Qadimdan shallanib kelgan hovuz madaniyati Buxoro shahri aholisi uchun nafaqat suv zahirasi saqlanadigan ob'yekt, balki shahar miqyosidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlarni belgilab beruvchi me'moriy inshoot hisoblangan. Maqolada bugungi kunda shahar madaniyatida hovuzlar o'rni, shaharsozlik va madaniy merosni muhofaza qilish sohalari kesishuvida muhim nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: madaniy muhit, mikroiklim, shaharsozlik, suv inshootlari, hovuz, restavratsiya

Аннотация: В данной статье анализируется историко-архитектурное значение Бухарских хаузов, а также освещается их роль в жизни населения на протяжении веков. Культура хаузов, сложившаяся с древнейших времён, для жителей Бухары представляла собой не только резервуар для хранения воды, но и архитектурное сооружение, определявшее социально-культурные взаимоотношения в масштабах города. В статье раскрывается современное значение хаузов в городской культуре, подчёркивается их теоретическая и практическая важность на пересечении сфер градостроительства и охраны культурного наследия.

Ключевые слова: культурная среда, микроклимат, градостроительство, водные сооружения, хауз, реставрация

Abstract: This article analyzes the historical and architectural significance of the hauzes (water reservoirs) of Bukhara and highlights their role in the daily life of the population throughout the centuries. The culture of hauzes, developed since ancient times, served not only as a means of water storage but also as architectural structures shaping the socio-cultural relations within the city. The article explores the contemporary relevance of hauzes in urban culture and emphasizes their theoretical and practical importance at the intersection of urban planning and cultural heritage preservation.

Keywords: cultural environment, microclimate, urban planning, water infrastructure, houz, restoration

Qadimgi Buxoro shahar muhitini shakllanishida suv omili hal qiluvchi manba bo'lib kelgan. Ko'p asrlik shaharsozlik amaliyotida suvni zahiralashga qaratilgan madaniy va me'moriy inshootlar, xususan hovuzlar ahamiyati muhim bo'lgan. Hovuzlar nafaqat suvni saqlovchi zahira sifatida, balki savdo va diniy inshootlar, jamoat maskanlari bilan uyg'un holda joylashuvi orqali shahar miqyosidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlarni belgilab beruvchi asosiy me'moriy inshoot bo'lgan.

Buxoro shahrining sug'orish ishlari va ichimlik suvi bilan ta'minlanishi asrlar davomida tabiiy manbalar va sug'orish inshootlari orqali amalga oshirilib kelingan. Shaharning Zarafshon daryosining quyi qismida joylashganligi, tarixiy davrlarda suv tanqisligini ko'plab vujudga kelishi natijasida IX-X asrlardayoq shaharda to'gonlar qurilgan va maxsus suvdan foydalanish qoidalari joriy qilingan [1; 6].

Ma'lumki, hovuzlar Buxoro tarixiy manzarasining ajralmas qismi sifatida shakllanib kelgan. Markaziy Osiyoning ko'plab boshqa shaharlar qatorida Buxoroda

ham me'moriy ansambllar tarkibida hovuz asosiy tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ladi. Hovuzlar atrofida madrasa, masjid, choyxona va bozorlar shakllangan. Bunday joylashuv hovuzlarni aholi uchun madaniy va turmush tarzi bilan bog'liq muhim makonga aylantirgan. Hovuzlar shahar aholisining suvga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash bilan birga turli ijtimoiy guruhlarining uchrashishi, dam olish va turli bayram marosimlarini o'tkazish nuqtasiga aylangan.

Biroq Zarafshon suvining mavzumi oqishi munosabati bilan suv resurslaridan foydalanish qat'iy tartibga solingan. Asosan Rus impeiyasining ta'siri ostida amalga oshirilgan 1902 yildagi kelishuvga asosan Zarafshon suvining uchdan bir qismi Buxoro amirligi hududida, uchdan ikki qismi esa Samarqandda qolgan [2;95]. Shu sababli suv ta'minotidagi uzilishlar orasidagi tanaffus suvni saqlab qolish zarurati Buxoroda hovuzlardan iborat rivojlangan tizimning shakllanishiga olib kelgan. Shaharni sharqdan g'arbga kesib o'tuvchi Shohrud kanali shahar uchun asosiy suv manbasi hisoblangan. Kanal kengligi 10-14 metr, chuqurligi 2 metr atrofida bo'lgan [2;95]. 1925-1926 yillar davomida Tropik institut tomonidan o'tkazilgan izlanishlar hisobotida Shohrud kanalidan shahar hududiga 220 ta suv tarmog'i ajratilgan bo'lib, ular shaharning turli qismlariga suv yetkazib bergan [3;27]. 1926 yilgacha Buxoro shahar suv ta'minotining an'anaviy shakli hovuzlar tarmog'iga asoslangan maxsus gidrotizim sifatida tanilgan.

1925 yilda Buxoro shahrida aholi foydalanib kelgan 96 ta hovuz mavjud bo'lgan [2;95]. Ularning 58 tasi tabiiy tosh bilan qoplangan bo'lib, ular asosan mahalliy ohaktosh va qumtoshdan foydalanilgan. Hovuzlarning me'moriy shakllari va qurilishi asrlar davomida shakllangan bo'lib, uning mustahkamligi, barqarorligi va seysmik holatda chidamligi inobatga olingan holda barpo qilingan. Hovuzlarning aksariyati sakkiz burchakli shaklga yaqin ko'rinishda bo'lib, yer sathining cho'kishi ehtimoli bois to'g'ri burchaklardan ehtiyot qilingan. Shuningdek suv keluvchi ariqning hovuzga nisbatan joylashuvi ham shaklga ta'sir ko'rsatgan. Zinasimon devorlar qurilishi esa suv sathining doimiy o'zgarib turishi bilan bog'liq bo'lib, 30-35 sm balandlikdagi zinapoyalar bir vaqtning o'zida ham devor qatlamasi, shuningdek, suvga tushish uchun qulay yo'lak vazifasini bajargan. Hovuzlarning hajmi ham turli xil bo'lib, ba'zilar kichik mahallalar ehtiyojiga yo'naltirilgan bo'lsa, kattalari butun shahar miqyosidagi jamoaviy majmualarga xizmat qilgan, xususan 330 m³ (eng kichigi Mirokon madrasasi hovlisida) dan 4320 m³ (Devon begi hovuzi) bo'lgan. Shahardagi barcha hovuzlarning umumiy suv sathi maydoni 38 368 m²ni tashkil etgan bo'lib, jami suv sig'imi 82 520 m³ ga teng bo'lgan [3;29]. Bu ko'rsatgich faqatgina hovuzlar to'liq to'ldirilgan holatda amalga oshar edi. Buxoro shahar hovuzlarida asosan, faqat bahor oylarida Zarafshondan keluvchi suv oqimi eng yuqori bo'lgan paytda to'ldirilgan. Buxoroliklar katta tanaffuslar orqali suv olganliklari sababli, suvni hovuzlarda saqlash tizimi rivojlangan. Hovuzlar shaharning turli hududlarda barpo qilinib, aholining suvga bo'lgan ehtiyojini qondirib kelgan. Xususan shahristondan balandroq qismlarda hovuzlar chuqur qazilgan joylarda qurilib, ularga maxsus ariqlar orqali suv yetkazib berilgan. Bu kabi hovuzlarning qurilishi hamda ularga bog'langan ariqlarning joylashuvi yuqori darajada texnik bilimlar asosida yaratilganligini ko'rsatadi. Istaxriyning ta'kidlashicha, Buxoroda bu tizim IX asrdayoq yo'lga qo'yilgan va shaharda o'qib

o'tuvchi doimiy suv bo'lmagan [4;148]. Hovuzlar katta mulkka ega bo'lgan mahalliy badavlat kishilar mablag'i hisobiga, yollangan ustalar tomonidan qurilgan. Qurilgan hovuzlar ko'pincha bosh usta nomi bilan atalgan. Shahardagi hovuzlar soni haqida dastlabki ma'lumotlar Parfenon-Fenin tuzgan shahar xaritasida 114 ta deb qayd etilgan. O.A.Cyxapeba tadqiqotlarida hovuzlar soni yuzga yaqin deb ko'rsatilgan, V.I.Kochidamov o'zining keng qamrovli tadqiqotlarida nomi ma'lum 96 ta hovuz bo'lganligini aytib o'tadi.


Buxoroda hovuzlar atrofida shakllangan joylar, odatda shahar aholisi hayotining markaziy maskaniga aylangan. Masalan, Labi Hovuz majmuasi diniy, ma'muriy va iqtisodiy faoliyat nuqtalari jamlangan markaz bo'lgan. Hovuz suvidan kunlik turmush tarzida foydalanibgina qolmay, balki atrof-muhitda mikro iqlim hosil qilgan holda Buxoroning tarixiy manzarasida betakror muhit yaratgan.

XX asrning boshlarida aholi orasida rishta kasalligi ommaviy tarzda tarqala boshlagan. Tekshiruvlar natijasida kasallik hovuzlarda to'xtab qolgan suvda rishta paraziti tarqalganligini ko'rsatgan. Buxoro tropik tibbiyot institutining bu xastalikka qarshi kurashi natijasida hovuzlar suvini iste'mol qilish taqiqlangan va 1932 yilga kelib rishta kasalligi deyarli bartaraf etilgani ta'kidlanadi [5;642]. Vaqt o'tishi bilan aholining hovuz suvlaridan foydalanishi kamayib borgan. Shuningdek, shahar hovuzlarining yo'qolishiga olib kelgan yana bir muhim omillaridan biri chiqindi suvlar muammosi bo'lgan. Shaharda yaxlit kanalizasiya tizimi bo'lmaganligi sababli aholi asosan, chuqur yer osti quduqlardan foydalangan. Ammo bu quduqlarning to'lib qolishi sababli shahar ariqlari va kanallariga chiqindi suvlar chiqarila boshlagan. Bu esa shahar hovuzlari va boshqa suv inshootlarini ifloslanishiga olib kelgan. Natijada oldin ichimlik suvi manbai sifatida xizmat qilgan hovuzlar turli kasalliklar tarqalishiga sabab bo'lgan. Ushbu xavfli holatga qarshi shaharda mavjud hovuzlar ko'pi quritila boshlandi. Ayrim hollarda mahalliy aholi tomonidan hovuz devoridagi tosh va g'ishtlarni buzib, qurilish ehtiyojlariga ishlatish kuzatilgan. 1927 yilda F.Xo'jayev rahbarligida Buxoro shahrida aholini suv bilan ta'minlash maqsadida suv quvurlari qurish ishlari boshlangan. Loyiha rus muhandisi Gerzon tomonidan amalga oshirilgan [6;41]. Natijada Buxoroda shahar suv ta'minot tizimining ishga tushurilishi bilan hovuzlar uzoq asrlar davomida bajarib kelgan ichimlik suvini ta'minlash vazifasidan siqib chiqarildi va o'zining funksional ahamiyatini yoqotdi.


2010 yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Buxoro shahridagi madaniy meros obyektlarini o'rganish, muhofaza qilish, restavrasiya qilish va zamonaviy foydalanishga moslashtirish bo'yicha 2020 yilgacha mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida»gi qarori qabul qilindi [7]. Qaror asosida shaharda joylashgan 152 ta tarixiy va me'moriy yodgorliklarni restavratsiya qilish ishlari tashkil qilindi. Shuningdek, Buxoroning tarixiy suv tizimini tiklash borasida ham amaliy ishlar olib borilib, Buxoro viloyatidagi 275 ming gektar yer maydoni barqaror suv ta'minotiga ega bo'ldi. Endilikda hovuzlar ichimlik suvi manbai sifatida emas, balki madaniy meros ob'yekti sifatida qaytib keldi. Bugungi kunda Buxoro shahridagi Labi Hovuz, Bolo Hovuz va Sitorai Moxi Xosa majmualaridagi hovuzlar muntazam ravishda suv bilan to'ldirilib turiladi. Bu o'z o'rnida shaharning ekologik muhitini saqlashda va madaniy meros sifatida xizmat

qilmoqda.

2009-2010 yillarda Buxoro shahridagi tarixiy me'moriy ansamblarni restavratsiya qilish jarayonida bir qator shahar hovuzlarida qayta ta'mirlash ishlari olib borildi. Jumladan, XVI asrga taaluqli Gavkushon hovuzi hamda Havzi Navda restavratsiya jarayoni yo'lga qo'yildi. Ikkala hovuzda ham hovuz tagida cho'kish va suv o'tkazish holatlari kuzatildi. Natijada hovuzlar hozirgi kunga qadar suvsiz holatda turibdi. Restavratsiya sohasidagi mutaxassislar va ustolar ishtirokida o'tkazilgan tekshiruvlar xulosasiga asosan, beton, sement hamda sun'iy gidroizolatsiya vositalarining tarixiy obidalar restavratsiyasida samarasizligi tan olindi va bunday materiallarni bundan keyin qo'llash taqiqlandi*.



Xo'ja Zayniddin hovuzi



Bolo Hovuz

Aytish joizki, hovuzlarni qurish an'analari asrlar davomida ustoz-shogird tamoyili asosida amalga oshirilgan bo'lib, an'anaviy gidrotexnik usullar va tabiiy materiallardan foydalanish bo'yicha ulkan tajriba shakllangan. Ammo keyingi asrlarda bu an'analar uzilib qolganligi tufayli va restavrator mutaxassislarning yetishmovchiligi, ta'mirlash ishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan hovuz tagiga sement, beton kabi sun'iy qurilish materiallarining ishlatilishi suvning tabiiy oqimini to'sishi, tez ifloslanish va hid tarqalishiga olib kelmoqda. Bugungi kunga kelib ushbu muammolarni hal qilish va tarixiy me'moriy tajribani qayta tiklash maqsadida Buxoro shahrida O'rta Osiyoda birinchi bor restavratsiya ishlari bo'yicha maxsus maktab qurilishi boshlab yuborilgan. Bu maktabda an'anaviy ustoz-shogird tizimi asosida mutaxassislar tayyorlash rejalashtirilgan. Restavratsiya maktabida tarixiy obidalarni ta'mirlash va tiklash borasida amaliy mashg'ulotlar va tajriba almashinuvini tashkil etish, hovuz va boshqa gidrotexnik inshootlarning tarixiy qurilish texnologiyalarini chuqur o'rganish, xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish, madrasa va masjidlardagi me'moriy bezaklar uchun an'anaviy usulda tabiiy ranglar ishlab chiqish yo'nalishida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish, mahalliy va xalqaro ustalar ishtirokida master-klasslar, seminar va o'quv kurslari tashkil etish ko'zda tutilgan.

Hozirda suvsiz holda mavjud Havzi Nav, Ho'ja Zayniddin, Gavkushon madrasasi oldidagi hovuzlarni ta'mirlab, qayta suv bilan to'ldirish nafaqat tarixiy-

* Restavrator Baxtiyor Bobomurodov bilan 2025 yil aprel oyida olib borilgan suhbat ma'lumotlari.

madaniy merosni saqlash, balki shahar iqlimini mo'tadillashtirishda muhim omil bo'lishi mumkin. Ayniqsa sovet davrida sun'iy ravishda tashkil qilingan Pioner va Komsomol ko'llarining mustaqilikdan so'ng quritilishi shahar iqlimiga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatganini kuzatishimiz mumkin. Mazkur ko'llar suvining quritilishi, shahar havosida issiqlikning ortishi, qumli shamollar faolligi kuzatilgan. Bu holat Buxoroning tabiiy geografik xususiyatlari - qumli va issiq ekotizimga ega hududda joylashganini inobatga olgan holda, shahar muhitini namlash va mikroiqlimni yumshatishga xizmat qiluvchi ana'naviy hovuzlar tizimini saqlash va tiklash orqali kamaytirish mumkin. Shaharsozlik va tabiatshunoslik sohasidagi zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, shahar muhitida hovuzlarning mavjudligi havo haroratini pasaytiradi, chang va qum zarralarining havoda tarqalishini kamaytiradi, turistik muhit uchun manzaraviy va tarixiy qimmatga ega sharoit yaratadi, shuningdek shaharda yashil zonalarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, Buxoro shahridagi mavjud tarixiy hovuzlarning ekologik holatini muntazam nazorat qilish bilan birga, qarovsiz yotgan hovuzlarni ta'mirlash va qayta tiklash nafaqat Buxoro shahrining tarixiy qiyofasini saqlash, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash va milliy merosni kelajak avlodga yetkazishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiy. Buxoro tarixi / fors tilidan A. Rasulov tarjimasi. Mas'ul moharrir A. O'rinboyev. -Toshkent: Sharq bayozi, 1993.
2. Кочегамов В.И. Труды по истории градостроительства с комментариями современных ученых. Том I. «Сохраненная культура 10 лет». Санкт-Петербург.2021.
3. Сухарева О.А. Бухара XIX-начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). «НАУКА».М. 1966.-С.29.
4. Istaxriy. Kitab al-masalik val-mamalik. «Fan», T. 2019.
5. Махсумов М.Д.. История развития медицинской науки в Узбекистане // молодой ученый. 2016. № 6. С. 642–645.
6. Raupov S.S. Fayzullo Xo'jayev va Buxoro shahrini ichimlik suvi bilan ta'minlash muammosi // «Fayzullo Xo'jayev – mutafakkir, ma'rifatparvar va islohotchi» mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Buxoro, 2021.
7. <https://lex.uz/uz/docs/1603724>.

MUNDARIJA

1-SHO‘BA: O‘ZBEKISTONNING MODDIY-MADANIY MEROSINI TARG‘IB VA TADQIQ ETISH TAMOYILLAR

Kuryazova Darmanjan. Toshkentda arxeologik obyektlarni saqlash masalalari.....	4
Xushvaqov Nabi., Olimov Ulug‘bek. Музейлар ва туризм: халқаро тажрибалар.....	11
Доспанов Октябр. Роль дисциплин в сохранении культурного и материального наследия народов приаралья.....	19
Ерекеева Мийригул. Исследование аудитории как ключевой элемент стратегии популяризации музеев: методы и практические рекомендации (на примере Каракалпакского государственного музея искусств им.И.В.Савицкого).....	25
Usanova Umida. O‘zbekistonning moddiy-madaniy merosini targ‘ib etishda ijtimoiy-madaniy funksiyalarning ahamiyati.....	33
Aksungul Aytmuratova. Xammasi shunday boshlangan.....	38
Axmedov Jasurbek. O‘zbek sozgarlik san‘atiga oid ayrim mulohazalar.....	45
Hayotova Nafisa. Buxoro hovuzlari: moddiy meros va shahar muhitini shakllantirishdagi o‘rni.....	48
Imamov Azizxon. O‘zbekiston muzeylarida tarixiy janrdagi zamonaviy rangtasvir asarlari xususida.....	53
Ismatullayeva Zebo. Muzeylar – o‘tmish va kelajakni bog‘lovchi ko‘prikdir....	59
Saidov Javohir. Jizzax vohasi karvonsaroylaridan turizm targ‘ibotida foydalanishga doir	63
Salimov Sherzod. O‘zbekistonning moddiy-madaniy merosi obyektlarining YUNESKO umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilish tarixi.....	68
Рахматуллаева Асалхон. «Хирот мактаби миниатюраларида илохий ва тасаввуфий ғоялар талқини» («Хайрат ул абдор» достони).....	72
Abduraxmonov Azamat. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxondaryoda muzey tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarning yuzaga kelishi.....	77
Murodova Dilrabo, Raxmonova Zarina. Mustaqillik yillarida buxoroda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar.....	81
Jalolov Zafar. Moddiy-ma'naviy meros va umumbashariy qadriyatlar: zamonaviy yondashuv	85
Yusupova Biybisara. Alvina Shpada ijodida ayol obrazi: ramzlar va metaforalar.....	89
Ro‘ziqulov Alisher. O‘zbekistonning moddiy-madaniy merosini targ‘ib va tadqiq etish tamoyillari	94
Туксанова Зилола. Медресе Мирза Улугбека в Бухаре.....	98
Ильхамова Ирода. Изучение памятников в интеграции стилей классицизма и эклектизма XIX века в городе Ташкенте (на примере дома-аптеки Каплана).....	101
Ziyayeva Rano. Me'mor Shusev arxitekturaviy merosini muzeylashtirish	

jarayonlarining o'rganilishi.....	106
Manoyev S.B., Manoyev B. Tarixiy shaharlar renovatsiyasi sharoitida shahar qiyofasi va obrazi.....	111
Muminov Bekzod. Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi islohatlar tarixidan.....	117
Radjabova Nodira. Buxoro xotin- qizlari «sozandachilik» san'ati tarixi.....	122
Асқарова Зилолахон. Хўжа кирмонийнинг «Хумой ва Хумоюн» достонига ишланган миниатюралар: семантика ва бадий талқин.....	128
Атабекова Саодат. Архитектура Ташкента: история развития и современность.....	137
Азизова Омина. Қадриятлардан ранг олган ўзлик.....	142
Rajabov Oybek. Hazrat Ka'bul Ahbor me'oriy yodgorligi.....	146
Даулетбаев Бердимурат. Сохранение культурного наследия в контексте трагедии арала и амударьи: музейные уроки Фаима Магдазина	149
Xushvaqтова Lobar. Amir Temur qurdirgan oq saroy me'moriy obidasi haqida	154
Гулямов Равшан. Тошкент музейи: этнографик муҳит ашёлари интерпретацияси.....	158
Астанов Суннат. Дорут-тиловат меъморий мажмуаси.....	163
Shakarov Anvar. «O'zbekiston madaniy merosi jahonto'plamlarida» loyihasining ilmiy-amaliy ahamiyati.....	167
Rashidova Ra'no. Shofirkon kashtachilar sulolasi	170
Sultanova M.F. O'zbekiston madaniy merosining durdonasi: Alisher Navoiy nomidagi davlat opera va balet teatri.....	174
Mannopova N.R. Toshkentdagi sovet davri kafelari va restoranlarining interyer dizayni: madaniy meros sifatida badiiy yondashuvlar va uslublar.....	180
Yo'ldasheva Maxfuza. O'zbekistonning moddiy-madaniy merosini targ'ib va tadbiq etish tamoyillari: muammolar va yechimlar.....	185

2-SHO'BA: MADANIY MEROSNI SAQLASHDA TARIX, ARXELOGIYA VA ETNOLOGIYAGA OID TADQIQOTLARNING AHAMIYATI

Ismatullayev Farxodjon. Yevropa muzeylarida saqlanayotgan ma'naviy me'rosimiz haqida ayrim mulohazalar.....	188
Ulmasov Akmal. Samarqand arxeologiya institutining restavratsiya faoliyatiga doir.....	192
Арипджанов Отабек. Тошкент тарихи ва археологияси: маданият ва хунармандчилик маркази сифатида	199
Расулова Дурдона. Туркистон табиати ва иқлимини ўрганишда француз олимларининг ўрни	207
Muxamedova Munisa. O'zbekiston muzeylarining muzey turizmi rivojidadagi o'rni (I.V. Saviskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi faoliyati asosida).....	212
Muxamedova Munisa. O'zbekiston muzeylarining xalqaro ko'rgazmalardagi	